



**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

AMALIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

*ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ
ЛИЧНОСТИ*

*PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PERSONALITY
DEVELOPMENT*

**XALQARO ILMIY KONFERENSIYA
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE**

TOSHKENT-2024

“Zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU, 2024 y, 585 bet..

Ma’sul muharrir:

Psixologiya fanlari doktori, professor N.SH. Umarova

Tahrir hay’ati:

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova

Psixologiya fanlari doktori, professor Z.T.Nishanova

Psixologiya fanlari doktori, professor D.S.Qarshiyeva

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent R.N.Ismaylova

Amaliy psixologiya kafedrasida dotsenti G.K.Alimova

Psixologiya fanlari PhD, dotsent SH.K.Sattorova

O’qituvchi U.R.Alimova

O’qituvchi N.F.Turayev

O’qituvchi Sh.S.Salomov

Sahifalovchilar: o’qituvchi M.N.G’aniyev

To’plamda keltirilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2024 yil ____ noyabrda bo’lib o’tgan kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

| | |
|---|-----|
| jarayoniga ta'siri | |
| Raxmanova G.A. Rahbar kadrlar shaxsi rivojlanishida yosh va pedagogik-psixologik konsepsiyalarning o'rni | 509 |
| Shavkatova Sh.P. Zamonaviy ish muhitida burnout sindromining psixologik sabablari va oldini olish strategiyalari | 513 |
| Sodiqova N.G'. MTT tarbiyalanuvchilaridada mantiqiy taffakurni rivojlantirish | 515 |
| Sultonova S.M. Aybdorlik xissining psixologik tahlili | 517 |
| Sultonova S.M., Jonpo'latova G.I. Sezgi nazariyalari va qonuniyatlarining psixologik tahlili | 521 |
| Turobova Sh.U. Konchilik, qazib olish sanoati xodimlarining tanasi va psixikasidagi toliqishlarni keltirib chiqaruvchi omillar va xususiyatlar | 523 |
| Xayitova Sh.B. Bugungi kun yoshlarining imkoniyat va cheklovlari | 528 |
| Xolmuratova M. M. O'smirlarning pul haqidagi ijtimoiy tasavvurlari | 531 |
| Xolmurotova M.M, Karimova R.Q. Ziddiyatga boy ta'limot Psixoanalizda san'at muammosi | 533 |
| Xusanov S.M. Shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining rivojlantirish modelining tahlili | 535 |
| Акрамов.М.Р. Табиат ва шахс хусусиятлари ўртасидаги ўзаро муносабатларни ўрганиш муаммоси | 537 |
| Алимова.Е.Г. Проблемы и перспективы развития психологических услуг в различных сферах | 541 |
| Асанова Г.М., Отношение к заболеванию и чувство вины у родителей детей больных онкологией | 545 |
| Асанова Г.М., Фаязова Р. Роль арт-терапии в работе с детьми | 550 |
| Мадвалиева Г.Ш. Эр ва хотинларнинг ўзаро бир-бирлариини тушуниш ва аниқ идрок қилиш хусусиятлари | 554 |
| Назирова Л.В., Рузикулова А. Замонавий ўзбек тадқиқотларида гендер сезувчанлик муаммосини ўрганиш ҳолати | 556 |
| Нишанов С.Ю., Мавлонова М.З., Садыкова Ж.З. Психосоматика: взаимосвязь психического и физического здоровья | 560 |
| Отажонова М.С. Ўқувчиларнинг алтруистик компетенциясини ривожлантириш мезонлари ва кўрсаткичлари ва танланган кўрсаткичларни ташхислаш усуллари | 563 |
| Собитов О. Ёш авлодни давлат хизматига тайёрлаш, уларда лидерлик кўникмаларини шакллантиришнинг психологик аҳамияти | 567 |
| Тиллашайхова Х.А., Саттарова М.Ш. Социальные технологии в духовно-нравственном воспитании в подростковом возрасте | 572 |
| Юлдашев С.Р. “Меҳр” инсонпарварлик операциялари орқали ўзбекистонга қайта олиб келинган репатриантларни реабилитация ва реинтеграция қилишда юзага келаётган муаммолар | 574 |
| Қодиров М.С. Шарқда шахсни таҳлил қилишда профайлинг услуги | 578 |

Xulosa: Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, burnout sindromi zamonaviy ish muhitida tez-tez uchrab turadigan holatlar sirasiga kirib qoldi. Shuning uchun bu ish burnout sindromining psixologik sabablari va oldini olish strategiyalarini o’rganishga qaratilgan, zamonaviy ish sharoitlarida yuzaga keladigan stress holatlariga yechimlar taklif etilgan. Bu mavzu jahon miqyosida muhimligini yana bir bor ta’kidlab o’tish lozim, chunki u nafaqat shaxsiy salomatlik, balki global iqtisodiy samaradorlikka ham ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бодров В.А. Психологический стресс: развитие и преодоление /В. А. Бодров. – М.: ПЕРСЕ, 2006. – 350 с.
2. Бойко В.В. Синдром «эмоционального выгорания» в профессиональном общении / В.В. Бойко. – СПб.: Питер, 1999. – 105 с. 6. Дяченко, М.И. Психология высшей школы / М.И. Дяченко, Л.А. Кандыбович. – Минск: Изд-во БГУ, 1978. – 145 с.
4. Sh.Shavkatova, O.Nabijonov “Psixologiyada g’ayrioddiy sindromlar” Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 145-147
5. Sh.P. Shavkatova, O.G Nabijonov “Psixolog faoliyatning etik muammosi, kasbiy me’yorlarning o’ziga xosligi” Scientific progress Tom 4. 378-380
6. О Аvezов, Ш Шавкатова «ИСТЕРИЧЕСКИЕ ПАРАЛИЧИ, СВЯЗАННЫЕ С НЕВРОЗОМ» Международная конференция академических наук, 2022. 6-8

MTT TARBIYALANUVCHILARIDA MANTIQIY TAFFAKURNI RIVOJLANTIRISH.

Sodiqova Nasiba G’aybullayevna - Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti.

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalarini, uning dolzarbligi ayni globallashtirish jarayoni bilan bog’liq holda ko’rib chiqilganligi, shaxsda ushbu xususiyatni takomillashtirish, yoshlarda doimiy ravishda ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur shakillarini qaror toptirish zarurligi tahlil etilgan.

Kalit so’zlar. Tafakkur, bolalar, o’yin, mantiq, rivojlantirish, faoliyat.

Kirish. Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri maktab ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki respublikamizning kelajagi, ravnaqi va istiqboli ko’proq yoshlarning ijodiy hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatiga bog’liqdir. Shuning uchun o’qitishning yangi ilg’or, faol usullarini qo’llash, oqilona vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta’lim olishi masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi bugungi yoshlarimizning hech kimdan kam bo’lmagan porloq kelajagiga jiddiy e’tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Ta’lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o’zgartirmasdan turib ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, tafakkurni o’zgartirmasdan turib esa biz ko’zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo’lmaydi.[1]

Asosiy qism. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining ongli hatti harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Inson o‘zining tafakkuri, nutqi hamda ongli hatti-harakati tufayli boshqa bilish jarayonlariga nisbatan tafakkur insonning aqliy va jismoniy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Inson fikr yuritish faoliyatida o‘zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqqoniyligi yoki ularning voqelikka mos tushishini aniqlaydi. Bilish protsessida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, farazlar, hulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi.

Bolada paydo bo‘lgan elementlar tafakkur, uning predmet va jismlarga, o‘yinchoqlarga, buyum va aslaxalarga nisbatan bildirayotgan harakatlarida ko‘zga tashlanadi. Bir yoshga yetgunga qadar ovozi o‘yinchoqlarni ushlab ko‘rish va ulardan foydala olish uquvchining paydo bo‘lishi fikr bildirish faoliyatida sifat o‘zgarishlarining yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Asta-sekin mustaqil ovqatlanishga intilish, qoshiq va kosadan foydalanish uchun harakat qilish, ularda analitik – sintetik faoliyatning vujudga kelayotganligini bildiradi.

Oila a‘zolari bola bilan muloqotga kirishganida uni so‘z va tushunchalar mohiyatiga etaklashlari tafakkurning rivojlanishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Kattalarning jism va predmetlarni aytib, bolaga ko‘rsatishlari va bunga javoban go‘dakning o‘sha narsalarga talpinishi elementlar tushunishning (anglashning) paydo bo‘layotganidan o‘zga narsa emas, albatta.

Bola bir yarim – ikki yosh bo‘lganida uning nutqi ravon bo‘la boshlaydi. Natijada yasli yoshidagi kichkintoylarning tafakkuri primitiv hukmlarda o‘z ifodasini topadi. Shunga qaramasdan mazkur yoshdagi bolaning tafakkuri bevosita idrok qilinayotgan konkret hodisalar, narsalar haqida fikr yuritishdan nari o‘tmaydi. Yasli yoshidagi bola egotsentrik harakterda bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki, fikr yuritish idrok qilinayotgan predmetlar bilan amalga oshirilayotgan ish harakatlarga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi.

Idrok bilan tafakkur shunchalik jips aloqada bo‘ladiki, hatto bu ikki protsessni fikran ajratib olish imkoniyati yo‘q. Bolada asta-sekin fikr yuritish operatsiyalari namoyon bo‘la boshlaydi. O‘yinchoqlarni taqqoslash, qismlarga ajratish (analiz qilish), kubiklardan piramidalar yasash (sintez), rang, shakl belgilariga qarab guruhlariga ajratish, hatto elementar darajada predmetlarni umumlashtirish darajasi vujudga keladi. Bolaning fikr yuritishi sxematik tarzda mana bunday tafakkur ko‘rgazmali harakat idrok ifodalanishi mumkin: o‘yin obrazli tafakkur.

5-6 yoshdagi bolalarning atrof-muhitdagi narsalar xususiyatini bilishga qiziqish taajjublelanishi, hayajonlanishi tafakkurni aktivlashtiradi. Mantiqiy tafakkurning hukm va mulohaza yuritish formalarini elementar shaklda o‘zlashtirib olish, maktab ta‘limi uchun puxta zamin tayyorlaydi. Bola dunyo yuzini ko‘rishi bilanoq voqelikdagi ayrim narsa va hodisalarni ko‘rishi, sezishi yoki his qilishi

mumkin. Inson bolasining ham jismonan, ham psixologik jihatdan rivojlanib borishi, turmush tajribasining boyishi, nutq boyligining ortishi tufayli, kishilar bilan muloqotga kirishi natijasida asta-sekin uning tafakkuri o‘sa boradi. Tafakkur bolada uning umumtaraqqiyoti bilan bilish faoliyatining, shuningdek ijtimoiy muhitning bevosita ta’siri ostidagina vujudga keladi. Real borliqning sezgi organlarida, idrok va tasavvurda aks etishi, xotirada mustahkamlanishi, bilishga nisbatan ehtiyojning tug‘ilishi tafakkurni vujudga keltiradi.

6- 7 yoshli bolaning tafakkur qilish jarayonida faoliyat bilan bog‘langan konkret vazifalar xal qilishga qaratilgan yo‘l ustunlik qiladi. Mana shu yoshdagi bolalarda umumlashtirish ko‘pincha predmetlardan amaliy ravishda foydalanish taalluqli bo‘lgan tashqi belgilarni o‘z ichiga oladi. Bu hol bolaning narsalarga bo‘lgan tarifida ko‘rinib turadi. Masalan u “uy odamlar yashaydigan joy” deydi va hokazo.

Xulosa. Bolaning mantiqiy va mustaqil tafakkuri faqatgina yangi, noma’lum bilimni kashf etishdagina namoyon bo‘lmaydi. Ijodiyotning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri shaxsning kashf qilingan yangi bilimning to‘g‘riligini isbotlash, bu bilimlarning muhimligi va dolzarbligiga boshqalarni ishontirish va boshqalar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bolalar o‘zlarishtirgan bilimlarini isbotlashga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Bolalarning o‘ylash, o‘z fikrlarini bildirish, qandaydir haqiqatning to‘g‘riligiga boshqalarni ishontirish borasidagi urinishlari, ular tafakkurida jiddiy to‘siqlarga uchraydi. Ayniqsa, bunday to‘siqlar orasida bolalarning boshqa kishilar fikridagi mantiqni hisobga ololmaslik, «o‘zganing» ko‘zi bilan qaray olmaslik va o‘zganing fikrini tahlil qila olmaslik kabilar namoyon bo‘ladi. Bunday to‘siq vujudga kelishining asosiy sababi - bolalarning kursdoshlari fikrini baholashda tajribaning yetishmasligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Авлоний А. «Турки гулистон ёхуд ахлоқ». - Т.: Ўқитувчи - 1992. 160 б.
2. Блонский П.П. «Возрастные особенности детей». - В кн. Избранные педагогические произведения. - М.: Изд-во АПН РСФСР - 1961. 695 с.
3. Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. - М.: Издательство АПН РСФСР. - 1960. - 168 с.

AYBDORLIK XISSINING PSIXOLOGIK TAHLILI.

Sultanova Saida Muhiddin qizi - Nizomiy nomidagi TDPU, “Amaliy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishlovchi ayollarda namoyon bo‘ladigan aybdorlik hissining mazmuni, xorij psixolog olimlarining psixologik nazariyalari, ilmiy qarashlari hamda shaxs hayotida aybdorlik hissining ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ishlovchi ayollarda aybdorlik hissining yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishining tahlillari keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: ishlovchi ayollar, ishga mas’uliyat, hamkasblar o‘rtasidagi muloqot, aybdorlik hissi, hissiyot, kechinma, emotsiya, ichki me’yor, jamoatchilik fikri, ijtimoiy me’yor, xulq-atvor, o‘zgalar bilan nizolashish.